



OZIQ-OVQAT SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA INSTITUTIONAL MUHIT VA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGI

Tursunova Dilnavoz Davron qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

2-kurs tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18920320>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 05-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 09- mart 2026 yil

KEY WORDS

oziq-ovqat sanoati, institutsional muhit, tartibga solish mexanizmlari, normativ-huquqiy siyosat, davlat qo'llab-quvvatlashi, subsidiyalar, investitsion muhit, sanoat raqobatbardoshligi, iqtisodiy samaradorlik, barqaror rivojlanish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish jarayonida institutsional muhit va tartibga solish mexanizmlarining tizimli ahamiyati kompleks yondashuv asosida tahlil etiladi. Tadqiqot doirasida tarmoqning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy institutsional omillar, jumladan davlatning normativ-huquqiy siyosati, tartibga solish instrumentlari, subsidiyalar va rag'batlantirish mexanizmlari, sertifikatlash hamda standartlashtirish tizimlari, shuningdek investitsion muhitning sifat ko'rsatkichlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqiladi.

Oziq-ovqat sanoati milliy iqtisodiyotning strategik tarkibiy qismi sifatida nafaqat aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, balki makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, sanoat diversifikatsiyasini jadallashtirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur tarmoqning samarali rivojlanishi ishlab chiqarish resurslari va texnologik modernizatsiya bilan bir qatorda, uning faoliyatini tartibga soluvchi institutsional muhitning sifat darajasi, normativ-huquqiy bazaning izchilligi va davlat tomonidan qo'llaniladigan iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligiga bevosita bog'liqdir.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoatini institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilib, ushbu jarayon normativ-huquqiy asoslar bilan mustahkamlandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini 2020-2030-yillarda rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"¹gi Farmonida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, qiymat zanjirlarini rivojlantirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Mazkur strategik hujjatda tarmoqning boshqaruv tizimini takomillashtirish, bozor institutlarini mustahkamlash va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini 2020-2030-yillarda rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5853-son Farmoni, 23.10.2019 yil. – URL: <https://lex.uz/docs/4567334> (murojaat qilingan sana: 20.02.2026).

investitsion muhitni yaxshilash institutsional rivojlanishning asosiy sharti sifatida e'tirof etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni investitsiya jarayonlarini huquqiy jihatdan tartibga solish, investorlar huquqlarini kafolatlash hamda sanoat tarmoqlarida, jumladan oziq-ovqat sanoatida investitsion faollikni oshirish orqali tarmoqning institutsional barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.² Bundan tashqari, 2022-yil 2-avgustdagi O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni³ hamda 2021-yil 23-apreldagi "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni⁴ bozor muhitini sog'lomlashtirish, standartlashtirish va sertifikatlash tizimini xalqaro talablarga moslashtirish, shuningdek, mahsulot sifati va xavfsizligi ustidan nazorat mexanizmlarini takomillashtirish orqali tartibga solish jarayonlarining institutsional asoslarini mustahkamlashga qaratilgan.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda davlatning tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytirish hamda iqtisodiy rag'batlantirish instrumentlarini kengaytirish orqali tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bo'lsa-da, amaliyotda tartibga solish jarayonlarining murakkabligi va institutlararo muvofiqlashtirishdagi ayrim kamchiliklar mavjud salohiyatdan to'liq foydalanishni cheklab kelmoqda. Shu bois, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish jarayonida institutsional muhit va tartibga solish mexanizmlarining ahamiyatini kompleks baholash hamda ularni takomillashtirish yo'nalishlarini ilmiy asoslash dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda institutsional muhit va tartibga solish mexanizmlarining ahamiyati bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularda tarmoqning barqaror rivojlanishi davlat siyosati, normativ-huquqiy baza va investitsion muhit bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi.

Institutsional iqtisodiyot nazariyasi asoschisi D. North iqtisodiy rivojlanish samarali formal va informal institutlar mavjudligiga bog'liq ekanligini ta'kidlab, institutlar tranzaksion xarajatlarni kamaytirish orqali o'sishni rag'batlantirishini asoslaydi.⁵ Biroq uning yondashuvi makro darajada umumlashtirilgan bo'lib, alohida sanoat tarmoqlarida tartibga solish mexanizmlarining natijadorligi yetarli darajada ochilmagan. O. Williamson esa tranzaksion xarajatlar nazariyasi doirasida boshqaruv tuzilmalari samaradorligini asoslab beradi, ammo uning modeli ko'proq korporativ darajaga qaratilgan bo'lib, agrar-oziq-ovqat tarmog'ida davlat tartibga solishining xususiyatlari chuqur yoritilmagan.⁶

N.R. Kurkina oziq-ovqat xavfsizligini milliy xavfsizlik bilan uzviy bog'lab, ishlab chiqarish va ta'minot zanjirlarini muvofiqlashtirish zarurligini ta'kidlaydi, biroq tartibga solish mexanizmlarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri aniq ko'rsatkichlar asosida baholanmagan. N.I. Saidaxmedova oziq-ovqat sanoatidagi asosiy muammolardan biri sifatida qishloq xo'jaligi

² O'zbekiston Respublikasi Qonuni «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida» O'RQ-598-son, 25.12.2019 yil.

³ O'zbekiston Respublikasi Qonuni «Raqobat to'g'risida» O'RQ-782-son, 02.08.2022 yil.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Qonuni «Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida» O'RQ-684-son, 23.04.2021 yil.

⁵ North D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.

⁶ Williamson O. E. The Economic Institutions of Capitalism: Firms, Markets, Relational Contracting. – New York: Free Press, 1985. – 450 p.

mahsulotlarini qayta ishlash darajasining pastligini ko'rsatadi, ammo institutsional muhitning tarkibiy elementlari kompleks tizim sifatida yetarli o'rganilmagan. N.V. Kandaurova integratsiyalashgan tuzilmalar bozor sharoitida samaraliroq ekanligini asoslab beradi, lekin davlat tomonidan qo'llaniladigan tartibga solish instrumentlarining iqtisodiy natijadorligi yetarli darajada tahlil qilinmagan.⁷

Shuningdek, Dube oziq-ovqat sanoatida davlat subsidiyalari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining o'sish sur'atlariga ta'sirini empirik asosda o'rganadi, biroq ma'muriy tartibga solish jarayonlari va institutsional muvofiqlashtirish omillari tadqiqot doirasida cheklangan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlarda oziq-ovqat sanoatining iqtisodiy va tashkiliy jihatlari keng yoritilgan bo'lsa-da, institutsional muhit va tartibga solish mexanizmlarining tarmoq raqobatbardoshligiga ko'rsatadigan tizimli ta'sirini kompleks baholash masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.


Mazkur tadqiqotda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda institutsional muhitning rolini baholash uchun hujjatli tahlil (policy analysis), statistik ma'lumotlarning dinamik tahlili va taqqoslama yondashuv usullaridan foydalanildi. Normativ-huquqiy hujjatlar mazmunan tahlil qilinib, ularning sanoat rivojlanish ko'rsatkichlari bilan bog'liqligi o'rganildi. Oziq-ovqat sanoatining ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar va eksport dinamikasi asosida institutsional o'zgarishlarning natijaviyligi baholandi. Tahlil jarayonida tizimli yondashuv hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Institutsional muhit deganda, avvalo, oziq-ovqat sanoati ishtirokchilari — korxonalar, fermerlar, logistika operatorlari, eksportyorlar, nazorat organlari va moliyaviy institutlar — faoliyatini tartibga soluvchi formal qoidalar (qonunlar, farmon va qarorlar, texnik reglamentlar, standartlar, litsenziya va ruxsat tartiblari) hamda ularning ijrosini ta'minlovchi tashkilotlar tizimi tushuniladi. Bunday muhitning asosiy funksiyasi iqtisodiy munosabatlarda aniqlik va prognoz qilinuvchanlikni ta'minlash, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish, raqobat uchun teng sharoit yaratish hamda investitsiya va innovatsiyalarni rag'batlantirishdan iborat. Oziq-ovqat sanoatida bu funksiyalar yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki tarmoq bir vaqtning o'zida oziq-ovqat xavfsizligi, sanitariya talablari, sifat standartlari va eksport reglamentlariga bog'liq bo'lgan murakkab tizimdir.

Tartibga solish mexanizmlari esa mazkur institutsional muhitning amaliy instrumentlari bo'lib, ular orqali davlat va bozor institutlari tarmoq rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu mexanizmlar huquqiy-tashkiliy tartibga solish, iqtisodiy rag'batlantirish, nazorat va muvofiqlik tizimi hamda raqobat institutlari orqali namoyon bo'ladi. Mazkur elementlar uyg'un ishlaganda, oziq-ovqat sanoatida qayta ishlash chuqurlashadi, logistika yo'qotishlari kamayadi va eksport sifati barqarorlashadi; aks holda esa byurokratik to'siqlar, ortiqcha xarajatlar va investitsiya sekinlashuvi kuzatiladi.

⁷ Kurkina N.R. Problemy obespecheniya prodovolstvennoy bezopasnosti // Ekonomika APK. – 2018.; Saidaxmedova N.I. Tendensii i problemi proizvodstva v pishovoy promishlennosti Uzbekistana // Scientific approach to the modern education system. – 2019. – №2.; Kandaurova N.V. Organizatsionno-ekonomicheskiye osnovi integratsii sel'skoxozyaystvennix i promishlennix predpriyatiy: Avtoreferat diss. k.e.n. – Krasnodar, 2005.



1-rasm. Oziq-ovqat sanoatida tizimli mexanizmlar ta'siri.⁸

Mazkur rasm oziq-ovqat sanoatida institutsional mexanizmlarning tizimli ta'sir zanjirini aks ettiradi. Unda avvalo institutsional muhit — ya'ni qonunlar, strategiyalar hamda formal va informal institutlar — tarmoq faoliyatining umumiy “qoidalar maydoni”ni shakllantiruvchi asos sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu muhit negizida iqtisodiy, huquqiy va texnik tartibga solish mexanizmlari shakllanib, ular orqali tarmoq jarayonlari — qayta ishlash, logistika, innovatsiya va sifat nazorati — muvofiqlashtiriladi. Natijada ishlab chiqarish hajmi, o'sish sur'ati, eksport salohiyati va raqobatbardoshlik kabi natijaviy ko'rsatkichlar shakllanadi.

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat sanoatini institutsional qo'llab-quvvatlash, avvalo, strategik hujjatlar darajasida mustahkamlangan. Prezidentning 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi”⁹ qayta ishlashni chuqurlashtirish, qiymat zanjirlarini rivojlantirish va bozor institutlarini kuchaytirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Ushbu strategiya xomashyo yetishtirishdan tortib qayta ishlash, saqlash va bozorga chiqarishgacha bo'lgan jarayonlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan bo'lib, oziq-ovqat sanoati uchun tizimli institutsional asos yaratadi.

Strategik yo'nalishlarning amaliy natijasi investitsion muhit bilan chambarchas bog'liq. 2019-yil 25-dekabrda O'RQ-598-son “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonun investorlarga huquqiy barqarorlik va himoya kafolatlarini belgilab berdi.¹⁰ Oziq-ovqat sanoati kapital talabchan bo'lgani sababli, qayta ishlash liniyalari, sovutish infratuzilmasi va laboratoriya nazoratini modernizatsiya qilish jarayonlari investitsion kafolatlar mavjudligiga

⁸ Muallif ishlanmasi.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risida»gi PF-5853-son Farmoni, 23.10.2019 yil.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Qonuni «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida» O'RQ-598-son, 25.12.2019 yil.

bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan, investitsiya qonunchiligi tarmoq modernizatsiya sur'atini belgilovchi muhim institutsional omil sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi raqobatbardosh mahsulotni avtomatik ravishda ta'minlamaydi. Oziq-ovqat bozori sifat va xavfsizlik talablariga juda sezgir bo'lganligi sababli, texnik jihatdan tartibga solish va muvofiqlikni baholash tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega. 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-820) sertifikatlash va standartlashtirish jarayonlarini yanada tizimlashtirishga xizmat qiladi.¹¹ Prognoz qilinuvchan va shaffof standartlar korxonalarini sifatga investitsiya kiritishga undaydi, aks holda esa muvofiqlik xarajatlari oshib, raqobat ustunligi susayadi.

Raqobat instituti ham tarmoq samaradorligining ichki drayveridir. 2023-yil 3-iyuldagi O'RQ-850-son "Raqobat to'g'risida"gi Qonun yangi tahriri oziq-ovqat sanoatida narx shakllanishi, bozorga kirish shartlari va kichik biznes ishtirokini tartibga soluvchi institutsional asosni mustahkamladi.¹² Sog'lom raqobat muhiti texnologik yangilanish va tannarxni optimallashtirishga bosim yaratadi, bu esa umumiy samaradorlikni oshiradi.

Yillar	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	Ishlab chiqarish o'sish sur'ati (yillik)
2020	42,3 trln so'm	
2021	48,6 trln so'm	+14,9%
2022	57,5 trln so'm	+18,3%
2023	65,7 trln so'm	+14,3%
2024	103,7 trln so'm	+57,8%
2025	86,5 trln so'm (yanvar-avgust)	+14,6% (2024-yil 8 oyiga nisbatan)

1-jadval.¹³ O'zbekiston Respublikasida 2020-2025 yillarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi

Normativ-huquqiy bazaning amaliy natijalarini baholash maqsadida statistik ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar-avgust oylarida 86,5 trln so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, bu 2024-yilning mos davriga nisbatan 14,6 foizga ko'pdir. Ishlab chiqarish hajmidagi bunday o'sish ishlab chiqarish zanjirlarining muvofiqlashgan ishlashi va institutsional mexanizmlarning ma'lum darajada samarali ekanini ko'rsatadi.

Hududiy kesimda Toshkent shahri (15,3 trln so'm), Toshkent viloyati va Samarqand viloyati (11,7 trln so'm) yetakchilik qilmoqda. Qashqadaryo, Farg'ona va Buxoro viloyatlarida ham sezilarli hajmlar qayd etilgan. Bunday konsentratsiya infratuzilma rivoji, investitsion qulaylik va sertifikatlash xizmatlarining mavjudligi bilan bog'liq. Ayrim hududlardagi past ko'rsatkichlar esa institutsional qo'llab-quvvatlashning bir tekis emasligi va logistika cheklovlari bilan izohlanadi.

Tarmoqning sanoat tarkibidagi ulushi ham muhim indikator hisoblanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'lumotlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Qonuni «Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida» O'RQ-820-son, 27.02.2023 yil.

¹² O'zbekiston Respublikasi Qonuni «Raqobat to'g'risida» O'RQ-850-son, 03.07.2023 yil.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga asosan muallif ishlanmasi.

ulushi 2021-yilda 14,8 foizdan 2022-yilda 16,4 foizga oshgan. Bu ko'rsatkich qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash va investitsiya jalb qilish mexanizmlarining ijobiy natija berayotganini anglatadi.

Investitsiya tahlili ham institutsional muhitning ishonchlilik darajasini ko'rsatadi. 2024-yil yanvar-fevral oylarida 1,1 trln so'm investitsiya o'zlashtirilgani va bu jami investitsiyalarning 2,4 foizini tashkil etgani qayd etilgan. Bu investitsiya oqimining mavjudligini ko'rsatsa-da, kapital sig'imi yuqori segmentlarda ehtiyojlar hali to'liq qoplanmaganini bildiradi. Demak, ruxsat tartiblari va moliyaviy instrumentlarning uyg'un ishlashi investitsiya jarayonlarini jadallashtirishda muhim ahamiyatga ega.

2021-yilda 20 506 ta korxonalar tomonidan 44 804,3 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgani va fizik hajm indeksi 105,3 foizni tashkil etgani tarmoqning keng qamrovli ekanini tasdiqlaydi. Biroq korxonalar sonining ko'pligi samaradorlikni kafolatlamaydi; samarali institutsional muhit mavjud bo'lgandagina ko'p sonli subyektlar innovatsion raqobatni kuchaytiradi.

Umuman olganda, ishlab chiqarish hajmining o'sishi, korxonalar bazasining kengligi va investitsiya oqimining mavjudligi institutsional muhit va tartibga solish mexanizmlarining ma'lum darajada ishlayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, hududiy tafovutlar va investitsiya ulushining cheklanganligi institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish zaruratini saqlab qolmoqda.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan normativ-huquqiy va empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoatining barqaror rivojlanishi nafaqat ishlab chiqarish quvvatlari va xomashyo bazasiga, balki institutsional muhitning sifati hamda tartibga solish mexanizmlarining samaradorligiga bevosita bog'liqdir. Ishlab chiqarish hajmining izchil o'sib borayotgani va investitsiya faolligining saqlanib qolayotgani amaldagi strategik hujjatlar, investitsiya qonunchiligi hamda texnik tartibga solish tizimidagi islohotlar tarmoq rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida ishlab chiqarish hajmlaridagi tafovutlar institutsional mexanizmlarning samaradorligi barcha hududlarda bir xil darajada emasligini ko'rsatadi: ayrim hududlarda infratuzilma va investitsion muhitning qulayligi yuqori natijalarni ta'minlayotgan bo'lsa, boshqalarida logistika va muvofiqlashtirishdagi cheklovlar mavjud salohiyatdan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Texnik jihatdan tartibga solish va muvofiqlikni baholash jarayonlarining shaffofligi, shuningdek sog'lom raqobat muhitining shakllanishi korxonalarini innovatsion faollikka undab, tannarxni optimallashtirish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, institutsional muhit samaradorligini hududlar kesimida baholovchi indikatorlar tizimini joriy etish, chuqur qayta ishlash loyihalarini differensial rag'batlantirish, sertifikatlash jarayonlarini raqamlashtirish hamda bozor shaffofligini kuchaytirish tarmoqning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, oziq-ovqat sanoatida institutsional muhit va tartibga solish mexanizmlarining takomillashuvi tarmoqning uzoq muddatli raqobatbardoshligi va barqaror o'sishini ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi izchil va tizimli choralar sanoatni milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanish drayverlaridan biriga aylantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son Farmoni, 11.09.2023 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi» to'g'risida»gi PF–5853-son Farmoni, 23.10.2019 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida» O'RQ–598-son, 25.12.2019 yil.
4. Kandaurova N.V., (2005). Organizatsionno-ekonomicheskoye osnovi integratsii selskoxozyaystvennix i promishlennix predpriyatiy //Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni k.e.n. po spetsialnosti 08.00.05 – Ekonomika i upravleniye narodnim xozyaystvom. Krasnodar-2005. -S. 3.
5. Saidaxmedova N.I., (2019). Tendensii i problemi proizvodstva v pishhevoy promishlennosti Uzbekistana // Nauchno elektronnyy jurnal 34 SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM “Mejdunarodnie finansi i uchet”. № 2, aprel, 2019 g. – s. 7 (na uzbekskom yazike).
6. North D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press.
7. Smith, J., & Jones, P. (2019). Consumer Trends and Food Demand. Journal of Food Economics.
8. Dube, A. (2018). State Support and Food Industry Performance. International Journal of Agricultural Economics.

INNOVATIVE
ACADEMY